

DANTE ALIGHIERINING "ILOHIY KOMEDIYA" ASARINI O'RGANIB

*KIUT Samarqand filiali Talabasi
Turg'unova Elmira Zafarjon qizi
e-mail eturgunova5@gmail.com
Ilmiy rahbar: Zubaydova Nilufar*

Annotasiya. Ushbu maqolada siz buyuk italyan adibi Dante Alighierining hayot va ijod yo'lini va uning qalamiga mansub bo'lgan "Ilohiy komediya" dostonini tahlilini ko'rishingiz mumkin. Bu asarda qanday voqealar ta'svirlangan va asarning umumiy mohiyati to'liq ochib Bundan tashqari o'zbek adabiyotida o'z o'rniga ega bo'lgan shoir, tarjimon va yozuvchi hisoblangan Abdulla Oripov ham bu asarga aloqasi bor. Ya'ni Dantening "Ilohiy komediya" asarini o'zbek tiliga tarjima qilgan, va bu asardan ilhomlangan holda o'zining "Jannatga yo'l" asarini yozgan. Bu ikki asarda ham insoniyatning azaldan necha asrlardan beri turli xil yomon illatlardan xolos bo'lolmayotganligi va insonlarning bir biriga bo'lgan adovatlar aks etgan.

Kalit so'zlar. O'zbek adabiyoti, Dante, Abdulla Oripov, "Ilohiy komediya", "Jannatga yo'l".

Dante Alighieri buyuk italyan shoiri hisoblanadi. Uning tug'ilgan joyi Florensiya bo'lib, tug'ilgan sanasi aniq ko'rsatilmagan. Ba'zi manbalarda keltirilishicha 1265 yil 21-mayda, yana boshqa ma'lumotlarda esa 1-iyun deb ma'lumot berishgan. Endi uning asarlariga, ijodiga keladigan bo'lsak uning ilk asari "Yangi hayot" asari (1292) yozilgan. Bu asarni u sevgilisi Biatrichga bag'ishlagan. Dante hayoti davomida turli xil asarlar yaratgan. Jumladan, "Bazm", "Yer va suv haqida", bundan tashqari ko'plab asarlar muallifi hisoblanadi. Dantening mashhurlikga olib chiqqan asari bu "Ilmiy komediya", sodir. Bu asar diniy shaklda yozilgan bo'lib, unda dunyodagi jamiyati insonlarning real hayoti ta'svirlangan. Bundan tashqari bu asarni tarjima qilgan buyuk o'zbek shoiri Abdulla Oripov hisoblanadi. Asarni tarjima qilib ilhomlangan holda o'zining "Jannatga yo'l" asarini yaratdi. Bu ikki asar mantiqan bir-biriga o'xshaydi. Abdulla Oripov o'z asarini she'riy shaklda yozadi. Bu ikki asarda ham sotqinlik, ig'vo, firibgarlik, ikki yuzlamachilik qoralanadi. Ikkala asarda insonlarning nafsi yo'lida hech qanday yo'ldan qaytmasligi, bu oqibatda gunoh ishlarga yo'l qo'yishlari berib o'tilgan. Dante o'z asarida buyuk shoir va donishmandlarni shu jumladan Demokrid, Ptolemiy, Evklidlarni sanab o'tgan. Asar 3 qismdan iborat. Bular: "Do'zax", "A'rof", "Jannat"dir. Abdulla Oripov o'z asarini Islom dinida yozgan bo'lsa Dante esa "Ilohiy komediya" asarini xristian dini bo'yicha yozgan. "Jannatga yo'l" asarida gunohlardan poklanish, inson ruhini har qanday gunohlardan poklanish ilgari surilgan. Dante esa "Ilohiy komediya" asarida gunoh va savobli ishlarni

yomonlik va gunoh ishlarni Do‘zax va A’rof ga kiritgan. Savobli ishlarni va yaxshiliklarni Jannat qismiga kiritgan. Bu uch qismni to‘liq holda ta’svirlab , ularga qanday odamlar kirishini ham aytib o‘tgan.Do‘zax qismida to‘qqiz qatlam bo‘lib unda har bir qatlamda qanday gunoh ish qilgan insonlar ta’svirlab o‘tilgan.Do‘zaxni birinchi qismida ruhoniylarni,diniy vakillarni kiritgan.A’rof bu qismda yetti daraja bo‘lib,bunda insonlar o‘z qilgan gunohlarini tushunib poklanish bosqichini boshdan kechirishadi.Uchinchi bosqichda Dante Jannatni ta’svirlab o‘tgan .Jannatda to‘qqiz osmon bo‘lib,Ya’ni gunohlardan foriq bo‘lgan insonlar bo‘ladi.

Xulosa

Ikki buyuk faylasuf – Abdulla Oripov va Dante o‘z asarlariga jamiyatdagi insonparvarlik va bundan tashqari turli xil illatlarini ochiq ko‘rsatib berishgan.Umumiy qilib aytganda Dantening “Ilohiy komediya “ asari hayotda yaxshi ishlarni qilish va har qanday gunohning o‘z jazosi va javobi borligi aytilgan.Bundan tashqari savobli ishning albatta mukofoti ham bo‘ladi. Shu sababli hayotda iloji boricha yaxshilik izlash va yaxshilik qilish kerak Har birimiz taot ibodatlarini o‘z vaqtida qilgan holda “Ilohiy komediya “asarida keltirilgandek Jannat bosqichiga tushish hammamizga nasib qilsin.

Foydalanilgan Adabiyot

1. Oripov A. Tanlangan asarlar.Uch jild.Toshkent.2001
2. Kh- davron.uz:Dante- Ilohiy komediya Do‘zax & Rustam Ibragimov: Dantening (Ilohiy komediya sida timsollar talqini).